E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida yaratilgan “Arba’in”larning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari

Samatova Sabohat

Termiz davlat universiteti 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy o’zbek she’riyatida arba’inchilik an’anasining davom ettirilishi, namunalar, yondoshuv jihatlari , xususan, yosh iste’dodli ijodkor Mansur Jumayevning “Arba’in she’r” turkum she’rlari tahlil ostiga olingan. Ijodkorning bu boradagi alohida jihatlari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Hadis, ummat, iymon, sahoba, turkiyzabon, sahih, arbain, halol, harom, sanad, matn, roviy.

Annotation: In the article, the continuation of the Arba'in tradition in modern Uzbek poetry, examples, aspects of approach, in particular, the poems of the "Arba'in She'r" series of the young talented artist Mansur Jumayev are analyzed. The special aspects of the artist in this regard are discussed.

Key words: Hadith, ummah, faith, companions, Turkic language, sahih, arbain, halal, haram, sanad, text, narrator.

Adabiyot insoniyat bilan birga yaralgan desak mubolag’a bo’lmas. Million , balki undan ham ortiqroq villardan buyon bu ikkisi hammaslak bo’lib yashab kelayotir. Biri taraqqiy etsa, ikkinchisi ham unga yo’ldosh bo’ladi. Inson o’zidagi qalb atalmish a’zoning tili, kechinmalari, quvonch-u shodligini adabiyot orqali ifoda qiladi. Uning jozibadorligi sababidan benazir adabiy asarlar yuz ochib, Odam farzandlarini yorug’likka olib chiqishga urinadi. Ayniqsa, bu asarlar muqaddas dinimiz bo’lmish Islom bilan sug’orilgandaa ko’zlangan maqsadning amali yanada aniq va mukammal bo’ladi. Ana shu ezgu yo’l davomida adabiyotda ko’plab alohida tur va janrlar vujudga keldi va ular hanuzgacha davom etib kelmoqda. Suyukli nabiyimiz Muhammad alayhissalomning sunnatlariga ergashib, ularning targ’iboti va amaliga chorlashni mayoq qilib olgan arba’innavislik an’anasi ham necha ming yillardan beri o’z jozibasini yo’qotgani yo’q. Ushbu yo’nalishning vujudga kelishiga ham aslida payg’ambar alayhissalomning “Kimki ummatlarimga din xususidagi qirq hadisni yetkazsa, Tangri taolo uni qiyomat kuni faqh (huquq) bilimdonlari, olimlar to‘dasiga qo‘shadi”, degan hadislari asos bo’lgan. Mazkur yo’nalishning zalvori anchayin og’ir, chunki bu janrda ijod qilishga bel bog’lagan ijodkor avvalo islom ahkomlaridan boxabar bo’lmog’i lozim. Chunki arba’innavislikning qat’iy qoidalari mavjud bo’lib, ular muallifdan kata mas’uliyat talab qiladi. She’riy arba’inlarga dastlab Abdurahmon Jomiy fors tilida boshlab bergan bo’lsa-da, biroq uning o’z davridagi eng go’zal namunasini Navoiy hazratlari yaratganlar.

Ma’lumotlarga ko’ra Navoiy “Arba’in”i[1] ustozi va zamondoshi bo’lmish Jomiy “Chixil hadis”[2]ining turkiydagi tarjimasi edi. Biroq shoir asarni aynan tarjima qilmay, unga yangi, hadislarni ham kiritib, mukammallashtirib borgan. Quvonarlisi bugun ham zamonamiz ijodkorlari tomonidan bu an’ana izchil davom ettirilmoqda. Mazkur yo’nalishdagi she’riy asarlarni Abdulla Oripov, A’zam O’ktam, Mirzo Kenjabek, Shukur Qurbon, Sirojiddin Sayyid kabi she’riyat darg’alari ijodida ham kuzatish mumkin. Ularning har biri ushbu an’anaga o’ziga xos joziba, yangilik, o’zgachalik olib kirgan. Aslida she’riyatdagi arba’in janrida asosan hadislar matni yoki ma’nosi to’rtlik ya’ni ruboiy janrida yozilishi , sha’r avvalida hadisning arabiy yoki forsiy matni berilishi kerak. Biroq Abdulla Oripov bu yo’nalishga o’zgacha yabgilik olib kirgan, shoir mazkur an’analardan biroz chetga chiqib, o’z she’rlarini to’rtlik emas, sakkiz bandlik tartibda yozadi. Ana shu sakkiz bandning o’zida bir nechta hadislar ma’nosini ifodalashga muvaffaq bo’lgan. Buni shoirning “Haj daftari”[3] turkumidagi she’rlarida uchratish mumkin.

Pahlavon

Bir suhbat chog;ida Hazrat payg’ambar,
O’rtaga tashladi savol –nogahon.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Aytdilar:-Zarurat tug'ilsa magar
Kimni atardingiz asl paglavon?
Sahobalar dedi:- Har kim doimo
Chekiga tushganni kelganlar olib.
Kurash maydoniga tushganda ammo
Pahlavon sanalgay kim bo'lsa g'olib
Rasulullоh dedi:- Ko'hnadir jahon,
Turfa xil kuch-qudrat border olamda
Lekin o'z jahlini yengolgan inson
Haqiqiy pahlavon erur olamda

Qarangki, mazkur uslub o'quvchini yanada sergaklikka chorlashi bilan ham go'zal. Boisi, voqeaning dialog shaklida berilishi har qanday muhlisni o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi. Qolaversa, bu hadisda izohlanayotgan ma'noni yanada teranroq anglanilishiga xizmat qiladi. Bunga esa dialog kop'rinishidagi munozarani berish orqali erishilgan. Ana shu uslub esa o'z navbatida kattaroq she'r shaklini talab qilayotir.

Sirojiddin Sayyidda esa bu uslub yanada o'zgacha joziba kasb etadi. Shoirning "Arba'in"[4]idagi hadislar jaydari tilda sharhlangan. So'zboshida shoirning o'zi:

Xudoyim qirq eshik ochilmoqdadir,

Xudoyim yorug' qil so'zni tilimga, deya ta'riflaganidek, bu qirq eshikning har biri dastyasiga bitilgan so'zlarda bir yorug'lik bor. Shoir anglagan o'sha ulug hikmar har bir eshikda mujassam:

Hikmat hadya qilg'il birodaringga,
Ko'chada va yoki uyga chaqirib.
Himatda qalb border, yod bor hikmatda,
Ne sharaf zotlarning umri yashirin.

Ushbu to'rtlikka payg'ambar alayhissalomning "kishi birodari uchun hikmatli so'zdan afzalroq narsa hadya qila olmaydi" hadislari asos qilib olingan.

Shoirdagi jo'n va xalqona yondoshuv hadislarning oddiy xalq ommasi orasida ham osongina yoyilib, "hazm qilinishiga" sabab bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Ana shunday xalqona jo'nlikni Shukur Qurbon "Arba'in"[5] ida ham uchratish mumkin. Faqat Shukur Qurbon hamkasblaridan farqli o'laroq har bir to'rtlikdan avval hadisning arabiy va o'zbekcha tarjima matnini ham berib boradi. Shoir asar muqaddimasini "Bag'ishlov" bilan boshlaydi:

Zehn osmonida bamisli yulduz
Hadisi shariflar qamashtirdi ko'z.
Havas narvoniga qo'ydimu oyoq,
Boladay intildim ularga, biroq
Oyog'imdan tortdi bilimsizligim,
Eng pastki zinada turibman-ku jim.
Lekin yuragimga nimadir bo'ldi,
Hayrat-hayajonga nafasim to'ldi.
Ajib tuyg'ulardan ko'zni yoshladim,
Nogahon o'zimni torta boshladim-
Yomon davralardan, nokas do'stlardan;
Cheklandim g'iybatu arzon so'zlardan.

Qanday oqilona va jovidona muqaddima. Qarangki, muallif arba'in yozish nafaqat o'quvchiga , avvalo o'z sohibiga, uning qalbiga musaffolik bag'ishlashi, uni gunohlardan tiyilishiga turtki bo'lishi mumkin ekan. Demak, arba'inni shunchaki, yo'l-yo'lakay yozib bo'lmaydi. Buning uchun avvalo qalbni nokaslik, g'iybat-u fasod otlig' gunohlardan poklab olish zarur. Ana shundagina ko'zlangan muddao hosil bo'ladi. "Bag'ishlov"ning davomida shoir

shunday yozadi:

Va boqdim beparvo ba'zi g'amlarga,
Yaxshilik sog'indim hamma-hammaga.
Ajdodlarning ruhiy olami aro
Yashadim qancha vaqt, zamondan ayro.
Har ikki dunyoda bir dard ko'rindi,
Beg'ubor ko'rindi, begard ko'rindi.
Fikrim tugunlari yechildi shu choq,
Ich-ichdan tan oldim: "Yo Rasulullo!
Hartugul ko'r bo'lmay ochildi bu ko'z,
Iymonga chorlarkan odamzodni so'z!"

Hadislarni o'rganish va ta'lif etish jarayonida qalb hotirjam bo'lib, dunyoga o'zgacha nigoh bilan boqa boshlaydi. Endi shoirga g'amlar-da beg'ubor ko'rina boshlaydi. Endi dunyoga teranroq, shaffof qalb ko'zlari ila boqadi shoir. Hayratlanarlisi, so'zdagi sehr qalbga ko'chib, iymonni mustahkamlar ekan. Ana shunday kuchli hissiyotlar junbushi bilan yaralgan she'rlar o'quvchini ham ezgulik sari yetaklashi, qalbining to'ridan joy egallashi shubhasizdir.

Ustoz ijodkorlarga ergashib, yosh shoirlar ham arba'in yaratishda dadil qadamlar tashlamoqda. Ana shunday yosh iste'dodlardan biri Mansur Jumayevning "Hadis mujdalari"[6] nomi bilan ta'lif etilgan to'plamidagi ayrim namunalar bilan tanishamiz. Ijodkor o'z asarida arba'innavislik an'anasiga sodiq qoladi. Har bir hadislar izohini to'rtliklarda berib boradi. Hadis matni esa asar so'ngida sanadlari bilan berilganligi mavzu va ilgari surilayorgan g'oyani yanada teranroq anglashga xizmat qilgan.

Ilmda huzur qil, mehnatdan shodlan,
Jahlingni kishanlab, nafsingga yotlan.
Jannatdan bir qamchi joy tegsin desang,
Tongda Haq uchun deb bir ishga otlan.

Ushbu to'rtlikka "Alloh yo'lida ertalab yo'lga otlanish dunyo va undagi narsalardan yaxshiroq! Jannatdagi bir qamchi joy dunyo va undagi narsalardan yaxshiroqdir!"hadisi asos qilib olingan. Unda dunyoga kelishdan, yashashdan ko'zlangan maqsad ifoda qilinadi. Dunyoga har qancha mehr qo'ymaylik, umr o'tkinchi, har bir banda bu dunyoga imtihon qilinmoq uchun keladi. Kimda-kim foydali ilm olib, unga chiroyli amal qilsa, mukofoti ham shunga yarasha bo'ladi.

Bilim boylik bo'lsa, sabol-kalitdir,
Ilm so'ralgan kun, demak, hayitdir.
Bu suhbat olimu omiyu some',
Do'stni saodatga eltar qayiqdir.

Ushbu to'rtlikda ilmning naqadar yuksak maqomda ekanligi aniq va chiroyli tarzda bayon qilingan. Ilmga boylik deya ta'rif berilib, uning kaliti savol ekanligi aytilgan. Nodonlik dengiziga cho'kish havfidan faqat bilim bilangina qutulish, saodat sohiliga ana shu qayiqda boorish mumkinligi ifoda etilgan.

Badiiy asar, unda qanday dolzarb umuminsoniy, zarur fikr va g'oyalar qalamga olinishidan qan'iy nazar , badiiy jihatdan yetuk bo'lmasa, o'quvchilar qalbini zabt eta olmaydi. Bunday badiiylikni esa qisman she'riy san'atlar, xususan, arba'in turkumlari ta'minlaydi. Gap faqat nimani aytishda emas. Balki qanday aytishda ekanligi ham chin adabiyotning shartlaridan biridir. Biroq har qanday go'zal shaklda chuqur ma'no va ifoda joylanmas ekan, bunday asar nomukammal bo'lib qolaveradi. Arba'inlar esa ana shu shartlarga amal qilib yaratilganda o'z mavqeyi va jozibasini, ohangraboligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahad Qobil, Mahmud Olloberdi. Alisher Navoiyning "Arbain hadis" kitobida muqaddima.-Toshkent: "Yozuvchi", 1991. 5-bet.


E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

2. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. 11 jild. She’rlar / Qirq hadis/ Yaxshilik eskirmagay. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 86-113 5.

3. Hasanxon Yahyo Abdulmajid / “Arba’in”ning nasriy bayoni va taxriji - Islom.uz islom.uz/content/view/3123.

4.Shukur Qurbon.1-Arba’in. Yoxud she’rga tushgan qirq hadis/ikkinchi nashri,-T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004-yil, 4-5-b

5. Mansur Jumayev. “Hadisdan mujdalar”.



WORDLY
KNOWLEDGE